MULTIMODAL YONDASHUV ORQALI AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARINING ONA TILI TA’LIMIDA MUAMMO VA YECHIMLARI

Muhammadiyev Tulagan Shavkat o‘g‘li, Guliston davlat pedagogika instituti
“O‘zbek tili va tillarni o‘qitish” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
e-mail: tulaganmuhammadiyev282@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada akademik litsey o‘quvchilari uchun ona tili ta’limida multimodal yondashuvni joriy etishning nazariy-metodik asoslari, uning dolzarbligi va amaliy samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan sharoitda an’anaviy ta’lim modellari o‘quvchining ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayotgani, shu bois multimodal yondashuv matn, audio, video, grafik va interaktiv resurslarning uyg‘unlashgan holda qo‘llanishi zamonaviy ta’limning muhim talabi ekani asoslab beriladi. Maqolada multimodal yondashuvni tatbiq etishda uchraydigan metodik, texnologik va tashkiliy muammolar standartlar yetishmasligi, o‘quv materiallarining moslashtirilmagani, o‘qituvchilarning tajriba kamligi kabi masalalar tahlil qilinib, ularning ilmiy asoslangan yechimlari taklif etiladi. Multimodal yondashuv akademik litsey o‘quvchilarining mustaqil, kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda, ona tilini chuqur o‘zlashtirishda hamda raqamli avlod talablariga mos ta’lim muhiti yaratishda muhim omil ekani ta’kidlanadi. Maqola multimodal ta’limni amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: multimodal ta’lim, multimodallik, ona tili ta’limi, akademik litsey, raqamli pedagogika, multimedia texnologiyalari, interfaol metodlar, analitik fikrlash, kommunikativ kompetensiya, audio-vizual materiallar, pedagogik texnologiya, didaktik yondashuv, AKT integratsiyasi.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИКЕЯ С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИМОДАЛЬНОГО ПОДХОДА

Аннотация. В статье научно анализируются теоретические и методологические основы внедрения мультимодального подхода в обучение родному языку учащихся академических лицеев, его актуальность и практическая эффективность. Утверждается, что в условиях глобализации и широкого распространения цифровых технологий традиционные образовательные модели не могут в полной мере удовлетворить потребности учащихся, поэтому мультимодальный подход, сочетающий использование текстовых, аудио-, видео-, графических и интерактивных ресурсов, является важным требованием современного образования. В статье анализируются методологические, технологические и организационные проблемы, возникающие при внедрении мультимодального подхода, такие как отсутствие стандартов, недостаточная адаптация учебных материалов и недостаток опыта преподавателей, и предлагаются научно обоснованные решения этих проблем. Подчеркивается, что мультимодальный подход является важным фактором развития самостоятельного, творческого и критического мышления учащихся академических лицеев, глубокого освоения родного языка и создания

образовательной среды, отвечающей требованиям цифрового поколения. Статья служит для разработки научно-методологических основ внедрения мультимодального образования на практике.

Ключевые слова: мультимодальное образование, мультимодальность, обучение родному языку, академический лицей, цифровая педагогика, мультимедийные технологии, интерактивные методы, аналитическое мышление, коммуникативная компетентность, аудиовизуальные материалы, педагогические технологии, дидактический подход, интеграция ИКТ.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN MOTHER LANGUAGE EDUCATION OF ACADEMIC LYCEUM STUDENTS THROUGH A MULTIMODAL APPROACH

Abstract. The article scientifically analyzes the theoretical and methodological foundations of the introduction of a multimodal approach in native language education for academic lyceum students, its relevance and practical effectiveness. It is argued that in the conditions of globalization and the widespread use of digital technologies, traditional educational models cannot fully meet the needs of the student, therefore, the multimodal approach, which combines the use of text, audio, video, graphic and interactive resources, is an important requirement of modern education. The article analyzes the methodological, technological and organizational problems encountered in the implementation of the multimodal approach, such as the lack of standards, the lack of adaptation of educational materials, and the lack of experience of teachers, and proposes scientifically based solutions to them. It is emphasized that the multimodal approach is an important factor in developing independent, creative and critical thinking of academic lyceum students, in-depth mastery of their native language, and in creating an educational environment that meets the requirements of the digital generation. The article serves to develop scientific and methodological foundations for the implementation of multimodal education in practice.

Keywords: multimodal education, multimodality, native language education, academic lyceum, digital pedagogy, multimedia technologies, interactive methods, analytical thinking, communicative competence, audio-visual materials, pedagogical technology, didactic approach, ICT integration.

Zamonaviy dunyo jamiyat oldida zamonaviy talablarni qo‘yadi. Bunday jamiyatda umumta’lim maktablari hamda akademik litsey o‘quvchilarining oldida zamonaviy bilimli, axborotni saralay oladigan, mediamadaniyati shakllangan, tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, rivojlanayotgan mamlakat uchun mas’uliyat tuyg‘usiga ega avlodni tarbiyalash vazifasi turadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma’lumotlarni, asosan, internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug‘atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib o‘zbek tilini keng targ‘ib etish bo‘yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim”. Albatta, internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning bir bo‘lagiga aylanib borayotgani ona tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish ehtiyojini keltirib chiqardi. Globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan bugungi kunda an’anaviy ta’lim modellari o‘quvchi ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Xususan, akademik litseylarida ona tili ta’limi o‘quvchilarning analitik fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, matnlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Multimodal yondashuv – ya’ni matn, audio, video, grafik, interaktiv resurslar

uyg‘unligida o‘qitish metodlari – ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishga katta imkoniyat yaratadi.

Biroq multimodal yondashuvni joriy etishda bir qator metodik, texnologik va tashkiliy muammolar mavjud. Mazkur maqola aynan shu muammolar hamda ularning yechimlarini yoritishga qaratilgan.

Multimodal ta’lim – bu axborotni bir nechta kanallar orqali (vizual, audial, kinestetik, matnli) qabul qilishga asoslangan pedagogik modeldir. J.Kress va G.Van Leeuvenning multimodallik nazariyasi ta’lim jarayonida turli semiotik tizimlarning o‘zaro uyg‘un ishlashini ta’kidlaydi, matnni ko‘p qatlamli tahlil qilishi, axborotni turli shakllarda qabul qilishi, kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish bu yondashuv o‘quvchilarning ona tilini yanada mustahkam o‘zlashtirishlarni ta’minlaydi [1]. Akademik litsey o‘quvchilari uchun ona tili ta’limida multimodal yondashuv ayniqsa muhim, chunki ushbu bosqichda ular oliy ta’limga tayyorlanadi, murakkab matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashga o‘tadi. Ona tili ta’limida multimodal yondashuvning ahamiyati audio tahlil, interaktiv xaritalar yordamida badiiy matnning semantik qatlamlari kengroq ochiladi. Video-matnlar, animatsiyalar, multimediya taqdimotlar o‘quvchini faol o‘quv jarayoniga jalb qiladi. Audio va video topshiriqlar orqali talaffuz, nutq ravonligi, muhokama olib borish qobiliyati shakllanadi. Vizual qo‘llanmalar, matn qurilishining grafik modellari yozuv sifatini yaxshilaydi.

Metodik muammolar: multimodal yondashuvning ona tili bo‘yicha aniq metodik standartlarining shakllanmaganligi, o‘quv rejalari va darsliklar multimodal ta’limga mos ravishda qayta ishlab chiqilmagan, hamda o‘qituvchilarning multimodal metodlar integratsiyasida tajribasi tajriba yetishmasligi.

Metodik yechimlar: ona tili faniga multimodal standartlar va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish. Darsliklar va elektron qo‘llanmalarni multimodal materiallar bilan boyitish. O‘quvchilarning multimodal topshiriqlarni bajarish bo‘yicha kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish. Vizual yuklamani me’yorlashtirish, ortiqcha yuklamadan saqlanish.

Akademik litsey o‘quvchilari uchun ona tili ta’limida multimodal yondashuvni joriy etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Multimodal o‘qitish o‘quvchilarni mustaqil, kreativ, tanqidiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantiradi. Biroq uni amaliyotga tatbiq etishda texnologik, metodik va psixologik muammolar mavjud bo‘lib, ular tizimli yondashuv orqali bartaraf etilishi mumkin.

Tajriba-sinov ishlarida multimodal yondashuv samaradorligi, tadqiqotlar ko‘rsatishicha, multimodal yondashuv asosida dars o‘tilgan akademik litsey guruhlarida:

- matn tahlili bo‘yicha ko‘rsatkichlar 30–35% ga,
- og‘zaki nutq kompetensiyasi 25% ga,
- yozma savodxonlik 20% ga oshgan.

Bu multimodal yondashuv o‘quv jarayonini yanada samarali qilishini tasdiqlaydi. Darhaqiqat, multimedia vositalarining imkoniyatlaridan unumli foydalana olish o‘qituvchi va o‘quvchini yangi ta’lim muhitiga olib kiradi, ko‘proq va kengroq ma’lumot egallash uchun shart-sharoit yaratadi. Pedagog-psixolog R.E.Meyerning tadqiqotlariga ko‘ra, verbal va vizual materiallar sinxron taqdim etilganda, optimal o‘rganish sodir bo‘ladi. Ma’lumotlarni turli idrok kanallari orqali bir vaqtda qabul qilish tinglovchilarni nazariy bilimlarini sezilarli darajada oshirish bilan birga ularning fikrlash, kognitiv faoliyat darajalarini rivojlantiradi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga asosan, multimediali ta’lim katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, o‘qituvchining didaktik imkoniyatlarini oshiradi, o‘quv jarayoni va o‘quvchi shaxsining zaxiralarini ochib berishda imkon beradi. R.K.Minyar-Beloruchev tadqiqotlarida multimedia

dasturlari nafaqat to‘g‘ri o‘qish, talaffuz va grammatik qoidalarni o‘rganishda, balki mintaqaviy va sotsiolingvistik ma’lumotlarni taqdim etishda ham qulay vosita ekanligini ta’kidlaydi. Ona tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish o‘z samarasini ko‘rsatganligi sir emas. A.Shukin “Ta’limning audiovizual vositalaridan sistemali foydalanish o‘quvchiga ruhlantirish, rag‘bantlantirish beribgina qolmay, til o‘rganishdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun ham xizmat qilishi hamda darsning barcha bosqichlarida murojaat qilish mumkin”ligini ta’kidlaydi. Bugungi kunda doska va bo‘r o‘rnini proektor va interfaol doskalar egalladi. Darsda o‘zlashtiriladigan material va ma’lumotlarni endi nafaqat darslik, balki darsliklarning elektron ilovalari, hatto ijtimoiy tarmoqlardan ham topish mumkin. Shuning uchun ta’lim jarayonini interfaol texnologiyalar asosida tashkil etishda yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar zarurati tug‘ildi. Bugungi o‘quvchilar zamonaviy axborot texnologiyalari (shaxsiy kompyuter, internet xizmatlari)dan juda faol foydalanadilar. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlarning kompyuter o‘yinlari, audio-video mahsulotlari va boshqa elementlarida tarbiyalanyaptilar. Shu bois zamonaviy darsning tarkibiga multimedia texnologiyalarini olib kirish, ona tili darslarini AKT bilan integratsiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Multimedia shaklidagi o‘quv materiallarining taqdimoti o‘qish vaqtini qisqartiradi. Yangi innovatsion axborot muhitida o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol qatnashadilar, mustaqil fikrlashni o‘rganadilar, o‘z nuqtayi nazarlarini ilgari suradilar, real vaziyatlarni tahlil qiladilar. Inson-kompyuter interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashgan pog‘onasi bo‘lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish o‘rganilayotgan obyektlarning modellarini qurish, o‘quvchilarning faolligini oshirish, axborotning turli shakllaridan foydalanish: ovoz, tasvir, animatsiya, matn, katta hajmdagi ma’lumotlarni izlash, qayta ishlash, saqlash va boshqa imkoniyatlarini yaratib berdi. Bu ham o‘quvchiga bilim berish, ham ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun uning ruhiyatiga va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Mutaxassislar multimedia vositalaridan darsning deyarli barcha bosqichlarida samarali foydalanish mumkinligi haqidagi xulosalarni berishgan. Shunga tayangan holda aytish mumkinki, ona tili darslarida ham mazkur holat imkoniyat sifatida mavjud. Har bir sinf doirasida va har bir mavzu kesimini o‘z ichiga qamrab olgan multimedia majmualarini yaratish o‘qituvchi uchun qulaylik keltiradi. Multimediali darslarda dasturiy ta’minot vositalari o‘qitishning an’anaviy texnologiyalarini to‘ldiradi. O‘quv ma’lumotlarini animatsiya va ovoz effektlari bilan jihozlangan diagrammalar, jadvallar, videoklip, audiomatnlar ko‘rinishidagi ko‘plab vizual tasvirlarni o‘quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, o‘qitish usullari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati bilan uzviy bog‘liq holatda bo‘lishini ta’minlash lozim. Multimediali pedagogik texnologiyalarni joriy etishda tilni o‘qitish nazariyasi va amaliyotida doimo mavjud bo‘lgan va vaqt sinovidan o‘tgan lingvodidaktik konstantalar o‘rtasidagi muvozanatni topish maqsadga muvofiq. Multimediali darslarning ustuvor maqsadi o‘quv jarayonida zamonaviy axborotga boy muhitda o‘quvchilarning samarali mustaqil ijodiy faoliyat qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Shuni inobatga olgan holda, multimedia dasturini ishlab chiqishda o‘qituvchi nafaqat mavzudagi o‘quv vazifalarini, balki maqsadlari (o‘quv, tarbiyaviy, rivojlanish)ni ham belgilab oladi, qo‘shimcha ravishda axborot madaniyati tarkibiy qismlari (kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotni texnik qayta ishlashning yangi usullari bilan tanishish, axborotni kompyuterda qayta ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va h.k.)ni ham qamrab oladi. Audio materiallar (she’rlar, darslik matnlarining audio variantlari, dialoglar) ona tilining talaffuzi, intonatsiyasi, nutq madaniyatini, madaniyatini amaliy tarzda egallaydi. Videodarslar yordamida mavzular yanada aniq va tushunarli bo‘ladi. Matn, audio va video materiallarning uyg‘unligi mavzuni o‘rganishda o‘quvchilarda qiziqishni oshiradi. Har tomonlama ko‘nikmalarni rivojlantirish: eshitish, o‘qish,

ko‘rish va nutq ko‘nikmalari birgalikda shakllanadi hamda dars jarayonida audio, video materiallardan unumli foydalanish o‘quvchilarning xotirasida ma’lumotlarning yaxshi saqlanishiga yordam beradi. O‘quvchilariga ona tiliga oid biror ma’lumotni o‘rgatishda shu ma’lumotning audio yoki video variantidan foydalanish ularni matn orqali o‘rganishdan ko‘ra samaraliroqdir. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilariga dars jarayonida qiziqishi sust, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning bilish darajasini oshirishda ham audio,video materiallarning o‘rni katta. Hozirgi kunda ta’lim samaradorligini oshirishda noan’anaviy dars jarayonini tashkil etish yaxshi natijalarga olib keladi. Bu borada o‘qituvchi bir xillikdan qochgan holda turli xil metodlardan foydalanishi ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Xalq so‘zi, 2019-yil 21-oktyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori. “Ta’lim tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Ona tili va adabiyot fanini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2020.

4. Kress, G., & Van Leeuwen, T. Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication. – London: Arnold, 2001.

5 Meyer R.E. Cognitive Theory of Multimedia Learning. – Santa Barbara, 1998.

6 Minyar-Beloruchev R.K. Metodika obucheniya frantsuzskomu yazyku. – Moskva, 1990, C.173.

7 Qosimova M, To‘xliev B, Yo‘ldosheva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

8 Suvanova N.A. Multimodal yondashuv asosida o‘quvchilarda mazmunni anglash ko‘nikmasini shakllantirishning innovatsion yo‘llari. – Toshkent: Izlanuvchi, 2023.

9 Xoshimov O., Rasulov R. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.

10 Shchukin A.N. Metodika prepodavaniya russkogo yazyka kak inostrannogo. – Moskva: Vysshaya shkola, 2003, s.229.